

# **FORS VA INGLIZ XALQ MAQOLLARINI O'RGANISHDA YUZAGA KELADIGAN LINGVOMADANIY INTERFERENSIYALAR TAHLILI**

Samadi Nooria

Termiz davlat universitetini doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu tezisdagi dariy (forsiy) tillardagi maqollar va ularning farqlari orqali paydo bo'ladigan lingvomadaniy xatolar (interferensiya)lar, va ularning til o'rganuvchilarga ko'rsatgan ta'siri haqida misollar orqali bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** maqol, dariy, forsiy, lingvomadaniy, interferensiya.

**Аннотация:** В данном тезисе автор говорит о дарских (персидских) пословицах, о лингвокультурологических ошибках (интерференциях) которые выявляются в результате их отличий между собой, а также о влиянии этих самих факторов на изучающих этот самый язык с помощью специфических примеров.

**Ключевые слова:** пословицы, персидский, дарский, лингвокультурологический, интерференция

**Abstract:** The current thesis discusses the darian (Persian) proverbs, lingo-cultural mistakes (interferences) caused by mutual differences among them, and the impact of these factors on language learners with the help of specific examples.

**Key words:** proverbs, darian, Persian, lingo-cultural, interference

Tilning madaniy yo'nalishiga e'tibor berish chet tillarni o'rganishda asosiy qisimlardan biridir. Madaniyatni uzatishda tilning o'rne shunchalik ravshanki, madaniyatsiz hech bir til barqaror til bo'la olmaydi. Til va madaniyat bir-biriga

bog'liq va har qanday til o'rganuvchining til o'rganish qobilayati uning madaniyatini bilish va o'zlashtirish darajasiga bog'liq. Tilning madaniy omillariga e'tibor bermaslik lingvistik xatolikka olib keladi.

Lingvistikada va tillarni o'qitish metodikasida "interferentsiya" termini faol qo'llaniladi. Lingvomadaniyatshunoslikda esa lingvokulturologik aloqalar natijasida interferentsiya bir millat madaniyat tizimi elementlarining ikkinchi xalq madaniyatiga uzatilayotgan elementlarning (qism, tarkibiy qism) o'ziniki yoki begonaniki bo'lishidan qat'iy nazar infiltratsiya (to'zatishtirish) yo'li bilan interferentsiya hodisasini bartaraf qilish amalga oshiriladi. Shu tarzda interferentsiya o'zida qo'llanilayotgan madaniyat tizimiga foydalanuvchi tomondan o'zlashtirilgan, avvalgi madaniyat doiradalarida olingan bilim va tajribalarning ongli va ongsiz olib o'tilishini ifodalaydi. [1,113]

Madaniyatlararo interferentsiyasi tufayli qadriyatlar, me'zonlar tizimi o'zgarishda san'at degumanizatsiya (insonparvarlikni yo'qotish) chuqurlashmoqda. Bugun ayon bo'lmoqdaki, milliy madaniyatlar aloqalarini faqat ijobiy baholash mumkin emas. Ayniqsa axloqiy, siyosiy va maishiy sohalarda jahon miqyosida milliy madaniyatlar interferentsiyasi hollariga misollar ko'p. Milliy madaniyatlar interferentsiya alohida o'rganiladigan o'ta murakkab mavzu. Uni o'rganishda juda katta va keng miqyosda qiyosiy va sotsiologik tadqiqot o'tkazish talab qilinadi. [2,29]

Bizning fikrimizcha, ingliz tili maqollarini o'rgatishda va ikki xalq maqollarining farqlari orqali paydo bo'ladigan interferentsiyalardan, biri lingvomadaniy interferentsiyasidir. Chunki, har bir maqol usha xalqning dunyoqarashi, turmush tarzi, xatti-xarakati, boshqalar bilan bo'lgan munosabati, qadriyatlari, rasm-rusmlari va madaniyatlarini o'zida aks ettiradi.

Oldin ham ta'kidlab o'tganimizded har bir tilda suhbatlashuvchi xalqni va ularni kimligini, o'zlariga xos bo'lgan milliy qadriyatlarini ko'rsatuvchi va ularning o'ziga xos bo'lgan an'analar, urf-odatlarini sharhlab beruvchi bu xalq maqollaridir.

Shu o'rinda biz dariyzabon xalq maqollari orasida mavjud bo'lmagan va ushbu millat madaniyatiga to'g'ri kelmaydigan, ingliz xalq maqollaridan misol tariqasida keltirib o'tamiz.

Inglizcha maqol: while two dogs are fighting for a bone, a third run away with it.  
[3]

Dariy (forscha) tarjima: در حالیکه دو سگ برای استخوان میجنگند، سومی با آن فرار میکند

Dariy (forscha) tarjima: Dar holiki du sag baroiy ustxon mejangand, sivumi bo on faror mekunad. Dar bayn insonha ham hamchu holat rux medihad.

O'zbekcha tarjima: Ikki it suyak uchun ko'rashayotganda, uchinchi u bilan qochib ketadi. Insonlar orasida ham shunday holat ro'y beradi.

Ushbu inglizcha maqol inglizlar orasida qo'llaniladigan ushbu maqol ularning madaniyatiga xos bo'lish mumkin. Dariyzabon xalqlar orasida bunday maqol yo'qligiga va ularning orasida foydalanilmasligini isbotlash uchun ushbu inglizcha maqolga fors tili maqollaridan qaramaqarshi maqollarni keltirib , bildirgan fikrimizga vazohat bermoqchimiz.

Dariy (forscha) maqol:

بنی آدم اعضای یکدیگرند - که در آفرینش زیك جوهرند

[4,55] چو عضوی ببرد آورد روزگار - دیگر عضوها را نامد قرار

Dariy (forscha) maqol: Baniy odam azoiy yakdegarand

Ki dar ofarenesh zi yak gavharand

Chu u'zvi badard ovarad ruzgor

Degar u'zv horo namonad qaror

O'zbekcha tarjima: Odam bolasi, bir-birlari bilan bir tan bir jondek, ularning hammasi bir (javhar) ya'ni bir to'proqdan yaratilganlar. Falak gardishi bilan tanadagi azolardan birortasi shikastlansa yoki og'rib qolsa, tandagi boshqa azolar ham og'rib qolib oz tinchligini yo'qotadi. O'zbek tilidagi tarjimadan shunday xulosaga kelishimiz mumkin. Islom diniga sig'ingan insonlar , shuningdek, o'zbek va forsiyzabon xalqlar orasida, ikki shaxs o'rtasida biror bir kelishmavchilik tufayli nizo kutarilsa, uchinchi saxs kutarilgan nizoni bartaraf qilishga harakat qiladi va hech qachon o'z manfaatlari uchun yuzaga kelgan vaziyatdan foydalanmayilar.

Demak misol tariqasida keltirilgan inglizcha maqol dariyzabon xalq maqollari orasida muqobil variant mavjud emas, bunday maqollar butunlay lingvomadaniy, ma'no-mazmun jihatdan farq qiladi. Bunday maqollarga o'xshash maqol keltira olmasligimiz aniq.

Inliz xalq maqollarini o'rgatish jarayonida ularning farqlari orqali paydo bo'ladigan interferentsiyalar va yuzaga keladigan salbiy ta'sirlarni o'quvchining o'ziga xos bo'lgan madaniyati bilan taqqoslash, vaziyatni ijobiy tomonga o'zgartirish, ingli tilini nuqsonsiz o'rgatishga zamin yaratib beradi.

### **Foylanilgan adabiyotlar**

<sup>1</sup> Mamatov A.E. Zamonaviy Lingvistika – Toshkent. “Noshir”., 2019.-113 b.

<sup>2</sup> Toshmatov D.A. Chet o'qitishda ona tili interferensiyasi va uni bartaraf etish

muammolari - Namangan, 2019,-29 b.

<sup>3</sup> Dictionary of English and Uzbek proverbs.

<sup>4</sup> Dr Abdul G'ani. Barzin Mehr. Zarbulamsal va kenayat.- Peshawer, 1378. 55 b.

